

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№3

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNINI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELTIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNINI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELINI	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'O'SHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI.....	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Diilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI.....	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOYIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR.....	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnoz Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiztdinovna	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI.....	224
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
<i>Амантурова Дилбара Кыдыкбековна</i>	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
<i>Асрарова М.У.</i>	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
<i>Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</i>	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEKANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
<i>Karimov Inomjon Ortikbaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
<i>Kamoliddinov Ilhomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich</i>	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
<i>Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li</i>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINING ROLI	264
<i>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS-NAZORAT TIZIMI ORQALI RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISH	270
<i>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ И СТРАХОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКИНГА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....	275
<i>Бахтиёров Худайберган Хамдам угли</i>	
DOIMIY BO'LMAGAN KUCH TA'SIRIDA DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ MODEL ISHLAB CHIQRISH VA SONLI TAHLIL QILISH.....	282
<i>Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Isomova Sabohat Islom qizi</i>	
YOUTH ENTREPRENEURSHIP AS A FACTOR OF STRUCTURAL ECONOMIC TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN.....	290
<i>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</i>	
МОДЕЛИРОВАНИЕ САМОВОЗБУЖДЕНИЕ НЕЯВНОПОЛЮСНОГО СИНХРОННОГО ГЕНЕРАТОРА ПРОДОЛЬНО-ПОПЕРЕЧНОГО ВОЗБУЖДЕНИЯ	298
<i>Пирматов Нурали Бердиёрович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Бердиёров Улугбек Нурали угли, Бердиёров Улмасбек Нурали угли</i>	
YURTIMIZDAGI EKOLOGIK SOF YOG'OCH MATERIALLARIDAN TAYYORLANGAN ORAYOPMA KONSTRUKSIYALARINING CHO'ZILISHGA QARSHILIGI	305
<i>Yunusaliyev Elmurod Muhammadyaqubovich, Toshpulatov Ilhomjon Baxtiyorovich</i>	
AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI	311
<i>Aminov Hamza Husanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich, Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi</i>	
EXPLAINABLE AI YORDAMIDA SOC UCHUN TUSHUNTIRILADIGAN KIBERXAVF ANIQLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQRISH	318
<i>N.N. Jo'rayev, A.Sh. Juraboyev</i>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARINI SUV YORDAMIDA TOZALASH VA SOVITISH USULLARI TAHLILI	324
<i>Ibragimov Umidjon Hikmatullayevich, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Izomov Shahzod Niyoz o'g'li, To'ymurodov Quvonchbek Sherzod o'g'li</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING QURILISH SOHASIGA INTEGRATSIYASI: ILG'OR XALQARO TAJRIBA	332
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
ФАКТОРЫ НАЛОГОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОБИРАЕМОСТЬ НАЛОГОВ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	339
Хакимова Ситора Ильёсжон кизи, Муталова Дилором Махамаджановна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЭКСПЕРТНОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ	345
Л.А. Кадырова, Б. Н. Эгамов	
О'ЗБЕКISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINING TUZILISHI TAHLILI	350
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MASALALARI	358
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
KONTEYNERLI TASHUVLARNING JORIY HOLATI, MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	366
Samatov G'affor Alloqulovich, Xolmatov Bekzod Nurmatovich, Toxirov Maxmudjon Murodjon o'g'li, Absattarov Isomiddin Xotam o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI BO'YICHA NOMUVOFIQLIKNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH MEKANIZMI	381
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR	386
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliiddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
SIFATLI TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH VA AHOLIGA QAMROVNI TA'MINLASHDA BOSHQARUV QARORLARINING AHAMIYATI	391
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDA GIPERPARAMETRLARNI MATEMATIK OPTIMALLASHTIRISH USULLARI	396
Husan Arziqulov Normurod o'g'li	
ENHANCING THE SERVICE SECTOR AS A MEANS OF CREATING EMPLOYMENT IN TOURISM INFRASTRUCTURE	401
Zarikeev Rasul Polatovich	
EXPANDING BANK CREDIT OPPORTUNITIES FOR FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	406
Isakov Janabay Yakipbaevich	
BANKS' BROKERAGE AND ADVISORY SERVICES IN FACILITATING SECURITIES TRANSACTIONS AND IMPROVING MARKET LIQUIDITY	412
Isakov Isobek Janabay uli	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ	416
Ибрагимов Мансур Ахметович	
ОПТИМИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ В УСЛОВИЯХ ПОСТРОЕНИЯ НОВЫХ ЦЕПЕЙ ПОСТАВОК	421
Маннапова Феруза Фахриддин кызы	
О'ЗБЕКISTON RESPUBLIKASIDA ISLOM MOLIYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	428
Isroilov Obid Olimjonovich	
OZIQ-OVQAT BOZORI KON'YUNKTURASINI BAHOLASHDA KO'P OMILLI REGRESSIYA MODELINING SAMARADORLIGI	433
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	



AHOLI TURMUSH TARZINI YAXSHILASHNING ISTIQBOLLARI.....	438
Djuraeva Didora Sobirjonovna	
ZAMONAVIY MOLIVAVIY INFRATUZILMANING INSTITUSIONAL ASOSLARI: TO'LOV TIZIMLARI NAZARIYASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	441
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI MENEJMENT VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	449
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
CORPORATE GOVERNANCE, FDI, AND URBANIZATION IN THE GREEN ECONOMIC TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN	454
Ablaeva Valentina	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND MICRO-ENTERPRISE DEVELOPMENT	460
Dilafuz Kuchkorova	
LEGIRLANGAN PO'LATLARDAN TAYYORLANGAN PROKATLASH JO'VALARINI CHIDAMLILIGINI OSHIRISH UCHUN TERMIK PUXTALASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	466
Saydumarov Botir Muradovich, Berdiyev Darob Murotovich, Tashmatov Ravshan Qobilovich	
SHAMOL TURBINASINING IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATORI O'TKINCHI JARAYONLARINING TAHLILI	471
Bekishev Allabergen Yergashevich, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Yunusov Obidxon Abdivait o'g'li, Jo'rayev Doston Majid o'g'li	
TIJORAT BANKLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	479
Babaxanova Dildora Rustamovna	
RAQOBAT USTUNLIGIGA ERISHISHDA ZAMONAVIY MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	485
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARI, ULARNING MOLIVAVIY HISOBOTLARI VA AUDITIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	490
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
EFFICIENCY OF IMPROVING THE IT SERVICES EXPORT	494
Uzakov Ortik Shaymardanovich	
CHORVACHILIKDA ILK VETERINARIYA XIZMATI TARIXI: QADIMGI O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	499
Sayfudinova Djamila Badridinovna	



CHORVACHILIKDA ILK VETERINARIYA XIZMATI TARIXI: QADIMGI O'ZBEKISTON MISOLIDA



Sayfudinova Djamila Badridinovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

E-mail: jamilasayfudinova@gmail.com

ORCID: 0009-0009-6092-0398

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston hududida qadimdan hayvonlarni xonakilashtirish, chorvachilik hamda dastlabki xalq veterinariyasi xizmatining vujudga kelish jarayonlari tarixiy manbalar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: xirurgiya, chorvachilik, hayvonlarni xonakilashtirish, xalq veterinariyasi, operatsiya, ko'chmanchi xalqlar, yarim ko'chmanchi hayot tarzi, dezinfeksiya.

Abstract. The article, based on historical sources, examines the processes of ancient animal domestication, the development of animal husbandry, and the emergence of the first traditional veterinary service in the territory of Uzbekistan.

Keywords: surgery, animal husbandry, animal domestication, traditional veterinary medicine, operation, nomadic peoples, semi-nomadic lifestyle, disinfection.

Аннотация. В статье на основе исторических источников рассматриваются процессы древнего одомашнивания животных, развития животноводства и возникновения первой народной ветеринарной службы на территории Узбекистана.

Ключевые слова: хирургия, животноводство, одомашнивание животных, народная ветеринарная медицина, операция, кочевые народы, полукочевой образ жизни, дезинфекция.

KIRISH

O'zbekiston chorvachiligida xalq veterinariyasi tarixi xalqning ko'p asrlik tajribasiga asoslangan bo'lib, chorva mollarini davolash va kasalliklardan saqlashga qaratilgan an'anaviy bilimlar tizimini ifodalaydi. Ushbu bilimlar tizimi ilmiy veterinariya rivojlanishidan ancha oldin shakllangan.

O'zbekiston hududida chorvachilik qadimdan rivojlangan xo'jalik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlar, xususan turkiy qabilalar, ot, qo'y, echki, tuya hamda qoramol boqish bilan shug'ullangan. Shu sababli chorva hayvonlari kasalliklarini aniqlash, davolash va ularning oldini olish bo'yicha boy xalq tajribasi shakllangan.

Qadimgi O'zbekiston, ya'ni Markaziy Osiyo hududida chorvachilik hamda uy hayvonlarini parvarishlash qadimdan mavjud bo'lgan. Chorvachilikning rivojlanishi bilan odamlar chorva hayvonlarining kasalliklarini davolash, ularning oziqlanishi, naslchilik jarayonlari hamda mavsumiy parvarishlash rejimlarini tashkil etishga oid turli tajriba va bilimlarni to'plaganlar. Mazkur tajriba va amaliy bilimlar keyinchalik mahalliy amaliy veterinariya xizmatining dastlabki shakllari sifatida qaraladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qadimgi O'zbekiston hududi (Sog'd, Buxoro, Xorazm) hamda umuman Markaziy Osiyoda veterinariya xizmatlari tarixiga oid ayrim ma'lumotlar turli tarixiy manbalarda uchraydi. Ushbu manbalarda veterinariya tibbiyoti to'g'ridan-to'g'ri mustaqil fan sifatida yoritilmagan bo'lsa-da, chorvachilik hamda chorva kasalliklari bilan bog'liq bilimlar haqida muhim ma'lumotlar mavjud.

- Abu Ali ibn Sino (Avicenna) — uning "Tib qonuni" asarida turli kasalliklar hamda hayvonlar sog'lig'i bilan bog'liq ayrim tavsiyalar uchraydi. Ushbu asarda chorva hayvonlari bilan muomala qilish va ularni parvarishlashga oid ayrim tavsiyalar ham keltirilgan.

- Abu Rayhon Beruniy — u o'z asarlarida dorivor o'simliklar hamda dori vositalari haqida ma'lumotlar keltirgan bo'lib, ularda chorva kasalliklarini davolash bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar ham uchraydi.

- Temuriylar davri manbalari (masalan, "Zafarnoma", "Boburnoma") — ushbu tarixiy asarlarda chorvachilik, otlar parvarishi, naslchilik hamda veterinariya amaliyotiga oid qimmatli tarixiy tasvirlar uchraydi.

Mazkur olimlarning qarashlari to'g'ridan-to'g'ri veterinariya tibbiyotiga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, chorvachilik hamda dorivor vositalardan foydalanish bilan bog'liq muhim tarixiy bilimlarni o'z ichiga oladi. Qadimgi Markaziy Osiyo sharoitida veterinariya mustaqil fan sifatida yetarli darajada yozma manbalarda aks etmagan. Shu sababli tadqiqotchilar ushbu ma'lumotlarni qishloq xo'jaligi, tibbiyot va tarixiy manbalar orqali qayta tiklaydilar.

Tarixshunoslik va arxeologiya sohasidagi tadqiqotchilar ham mazkur masalani o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Qadimgi Markaziy Osiyo tarixini chuqur o'rgangan tarixchi va arxeolog olimlar chorvachilik, hayvonlarni parvarishlash amaliyoti hamda hayvon kasalliklari bilan bog'liq ayrim belgilarni ilmiy manbalarda aniqlashga yordam beradi.

- Claude Rapin — Markaziy Osiyo arxeologiyasi hamda qadimgi turmush tarzi bo'yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri bo'lib, u aholining turmush tarzi, jumladan chorvachilik va unga bog'liq madaniy jihatlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekiston hududida qadimdan hayvonlarni xonakilashtirish, chorvachilik hamda dastlabki xalq veterinariyasi xizmatining shakllanish jarayonlari tarixiy manbalar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, zamon va makon tamoyili, abstrakt fikrlash, shuningdek monografik hamda mantiqiy yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda xalq veterinariyasida quyidagi usullar keng tarqalgan: o'simliklar yordamida davolash; isiriqdan infeksiyalarga qarshi vosita sifatida foydalanish; piyoz va sarimsoqdan yallig'lanishga qarshi vosita sifatida foydalanish; archa tutunidan dezinfeksiya maqsadida foydalanish; yaralarni tozalash; ayrim kasalliklarda qon chiqarish; singan a'zolari bog'lash; kasalliklarning oldini olish maqsadida chorva mollarini toza joyda saqlash; kasal hayvonlarni alohida ajratish; suv va ozuqa sifatini nazorat qilish kabi choralar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda xalq veterinariyasi chorvachilik rivoji bilan uzviy bog'liq bo'lib, ko'p asrlik tajribaga ega. Ushbu tizim tabiiy vositalardan foydalanish, kuzatish hamda amaliy tajribaga asoslangan. Keyinchalik ilmiy veterinariya shakllanishi bilan bu an'anaviy bilimlar yanada boyitilib, zamonaviy veterinariya tizimining shakllanishiga muayyan darajada asos bo'lib xizmat qilgan.

Antik davrlarda xalq tabobati bilan shug'ullangan tabiblar kasallangan chorva mollariga tashxis qo'yish, kasallikni aniqlash hamda uni davolash usullarini yaxshi bilganlar. Jumladan, hayvonlarning kasallikka chalinishining dastlabki belgilarini sezgan zahoti ularni davolash choralarini ko'rganlar. Masalan, hayvonning qattiq shamollashi, ovqat yemasligi, ishtahaning pasayishi, ovqatlangandan so'ng so'lakning uzluksiz oqishi, og'izdan yoqimsiz hid kelishi kabi belgilar oshqozon bilan bog'liq kasalliklarning alomati sifatida talqin qilingan.

Shuningdek, og'izdan yomon hid kelishi, tana haroratining ko'tarilishi, hayvon tili ustida dastlab oq rangdagi dog'larning paydo bo'lib, keyinchalik quyuq rangga o'tishi xavfli kasalliklarning belgisi sifatida baholangan. Bunday kasalliklarga tashxis qo'yilib, "dilbosh" (autotrofagiya) deb nomlangan holatlar ham qayd etilgan. Ularni davolashda o'tkir pichoq tig'i bilan zararlangan joyni kesib qon chiqarish, so'ngra qaynatilib eritilgan tuz eritmasi bilan yuvish hamda surtish kabi usullardan foydalanilgan. Natijada kasal hayvonning sog'ayishi kuzatilgan¹.

Qadimdan hayvonlarning, jumladan, otlarning kasallanishiga olib keluvchi turli omillar ham yaxshi ma'lum bo'lgan. Masalan, otlarga yoki boshqa ishchi hayvonlarga ortiqcha yem yoki arpa berish, ularni uzluksiz va tez haydab holdan toydirish, iflos suv ichirish, buzilgan xashak yoki zaharli o'simliklarni (masalan, "kampirchopon",



“eshakmiya”, “kuchala”) iste'mol qilishi kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi aniqlangan. Shuningdek, ilon chaqishi natijasida yuzaga keladigan og'ir kasallik holatlari ham kuzatilgan.

Hayvonlarni xonakilashtirish jarayonida xalq orasidan chiqqan tabiblar va tajribali chorvadorlar ushbu kasalliklarni aniqlash hamda ularni davolash usullarini amaliy tajriba asosida o'zlashtirganlar. Davolash usullari ko'pincha oddiy bo'lib, kasallik aniqlangach, zarur joyni kesib qon chiqarish, ayrim hollarda siydik yo'llarini ochish orqali zaharli moddalarni chiqarish kabi jarrohlik amaliyotlari qo'llangan.

Shuningdek, xalq tabiblari qichima, junning to'kilishi, otlarning yonbosh yoki yelka qismida (ayniqsa, arava yoki yuk tortadigan otlarda) paydo bo'ladigan jarohatlar, shishlar yoki yiringli yaralarni ham davolash usullarini yaxshi bilganlar. Bunday kasalliklarga tezkor tashxis qo'yilib, turli davolash choralarini qo'llash orqali hayvonlarni sog'lomlashtirishga erishilgan.

Davolash jarayonida otlarga ma'lum muddat, odatda 40 kungacha, arpa yoki boshqa oziqa berib parvarish qilish, venadan qon olish, turli surtma va yuvish usullarini qo'llash orqali kasalliklarni davolash amaliyoti keng tarqalgan². Ayrim hayvon kasalliklari qadimda Markaziy Osiyoda kuzatilgan bo'lib, keyinchalik boshqa hududlardagi chorva hayvonlariga ham tarqalgan.

Umuman olganda, qon chiqarish, siydik chiqarish, zararlangan joylarni kesib zaharli moddalarni chiqarish kabi usullar qadimgi xalq veterinariyasida jarrohlik amaliyotining dastlabki ko'rinishlari sifatida qaraladi. Ushbu amaliyotlar chorvachilikda xalq tabobatiga asoslangan veterinariya xizmatining shakllanishida muhim o'rin tutgan.

Hayvonlarda kasallikni davolashda zararlangan joyni kesib, zaharli modda hamda qonni chiqarish eng qadimgi operatsiya usullaridan biri hisoblangan. Bunday amaliyot nihoyatda hushyorlik va ehtiyotkorlik bilan bajarilgan. Jumladan, agar molni — ot yoki qoramolni — ilon chaqsa yoki zaharli qoraqurt chaqqan bo'lsa, chaqilgan joy o'tkir asbob yordamida kesilib, sho'r suv yoki tabiblarga ma'lum bo'lgan dorivor moddalar bilan ishlov berilgan. So'ngra kesilgan joyga dorivor modda surtib yoki ishqalab qo'yilgan. Ushbu operatsion (xirurgik) usul O'rta Osiyo tabiblariga qadimdan ma'lum bo'lgan.

Qadimgi veterinariya tabiblari qon rangiga qarab kasallikni aniqlash va tashxis qo'yishni ham bilganlar. Masalan, sarg'ish-qizil rangdagi qon sog'lomlik belgisi deb hisoblangan. Agar kasallangan hayvonning, masalan, oyoq-tuyog'i shamollagan bo'lsa, uning qoni to'q qizil rangda bo'lishi kuzatilgan. Zarur holatlarda kasal hayvonni davolash maqsadida qon chiqarish usuli qo'llanilgan. Bunda hayvon tanasining bir necha joyidan, hatto tomirlaridan bir vaqtning o'zida kesib operatsiya qilish orqali qon chiqarilgan³.

Jumladan, yirik shoxli qoramollarning kasalliklarini davolashda quloq tomiridan yoki oyoq tovonlari orasidagi tomirdan, qo'y va echkilarda esa oyoq venasi tomiridan yoki ustki labidagi qon tomiridan qon chiqarish amaliyoti qo'llanilgan⁴. Cho'chqalarda esa quloq yoki dum tomirlaridan qon chiqarish orqali davolash usullari amalga oshirilgan. Zaharli maxluqlar chaqqan holatlarda ham davolash jarayoni shu tarzda olib borilib, operatsiya qilingan joy dorivor moylar bilan ishlov berilgan.

Bunday operatsiyalar temir, mis yoki bronzadan yasalgan, silliq va yassi shakldagi, maxsus sterilizatsiya qilingan asboblardan bajarilgan⁵. Qadimiy tabiblar chorva hayvonlariga akusherlik xizmatini ham ma'lum darajada amalga oshirishga muvaffaq bo'lganlar. Masalan, zararlangan embrion yoki homilani jarrohlik yo'li bilan olib tashlash amaliyoti ham mavjud bo'lgan.

Hayvonlarda bunday jarrohlik operatsiyalarini maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan tabiblar amalga oshirganlar. Bu usullar O'rta Osiyoda hamda umuman Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, uning markazlaridan biri ikki daryo oralig'i hududi hisoblangan. Hayvonlarni kastratsiya qilish, ayniqsa, toychoqlarda amalga oshiriladigan amaliyotlar ham maxsus malakaga ega kishilar tomonidan bajarilgan. Odatda bunday jarrohlik operatsiyalari bahor va kuz fasllarida amalga oshirilgan.

Xalq veterinariya-tabiblik xizmati tarixiy davrlar davomida rivojlanib, xalq orasida tabobat amaliyoti bilan uyg'unlashib borgan. Dastlab ayrim davolash usullari marosimiy yoki sehr bilan bog'liq tasavvurlar bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilgan. Biroq vaqt o'tishi bilan davolash usullari asta-sekin amaliy tajribaga asoslangan dunyoviy faoliyat shakliga o'ta boshlagan. Natijada veterinariya-tabiblik xizmati asta-sekin amaliy-ilmiiy xarakter kasb etib, rivojlanib borgan. Bu jarayon dastlab Sharq, Markaziy Osiyo hamda Zakavkazye hududlarida kuzatilgan.

Mazkur jarayon uzoq tarixiy davrlarni qamrab olib, markazlashgan davlatlarning shakllanishi, mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivoji, mudofaa qobiliyatining mustahkamlanishi bilan ham bog'liq holda rivojlangan. Natijada veterinariya xizmatining ahamiyati ortib, u davlat siyosatida ham muhim o'rin egallay boshlagan.

Xalq veterinariyasi taraqqiyoti jarayonida chorva hayvonlarini turli kasalliklardan saqlash, tashxis qo'yish hamda davolashda turli dorivor o'simliklar, jism va moddalar, shuningdek davolash texnikasi hamda tibbiy asboblardan foydalanish amaliyoti shakllangan. Tabiblar va tajribali chorvadorlar sodda, ammo samarali usullarni keng qo'llaganlar.



Masalan, hayvonlar va inson organizmida paydo bo'ladigan shishlar, o'smalar va turli o'sma shakllari ligatura (tibbiy iplar) yordamida kesib olib tashlangan. Shuningdek, hayvonlarning zararlangan dumlari yoki quloqlari kesilgan, chiqqan yoki singan suyaklari jarrohlik usulida davolangan. Shu yo'l bilan chorva hayvonlarini saqlab qolish mumkin bo'lgan.

Bundan tashqari, qoramol, ot, tuya, eshak va boshqa xo'jalik uchun zarur bo'lgan hayvonlarning oyoqlari, tuyoqlari, shoxlari ham muntazam davolanib turilgan. Oyoq-tuyoqlariga kirib qolgan o'tkir predmetlar olib tashlangan, yiringli yoki zaharlangan joylar maxsus naychalar yordamida tozalangan.

Davolash jarayonida turli dorivor vositalardan foydalanilgan. Jumladan, turli xil moylar (masalan, cho'chqa moyi), asal, tuxum, sut, qon, siydik, hayvon terisi va juni, yangi teri, uksusli loy aralashmalari, zardoblar (hayvon va insonniki), shuningdek shox va tuyoqlardan tayyorlangan kukunlar, kuydirilgan jun kuli, smola, kerosin, don mahsulotlari (bug'doy, arpa, jo'xori), ayiq, cho'chqa, qo'y va baliq moylari hamda turli o'simliklarning ildizi, bargi va poyalari keng qo'llanilgan.

Ushbu dorivor vositalar ichimlik yoki suyuqlik shaklida ichirilgan, malham sifatida surtilgan, yaralarga qo'yilgan yoki ozuqa bilan birga berilgan. Ba'zi hollarda tutatgichlar tayyorlanib, hayvonlar orasidagi kasalliklarni bartaraf etishda qo'llanilgan. Shu usullar orqali nafaqat hayvonlar, balki ayrim hollarda insonlar ham davolangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hayvonlarning xonakilashtirilishi davridan boshlab xalq tabobatiga asoslangan veterinariya xizmati shakllana boshlagan. Dastlab veterinariya tabobati ikki yo'nalishda rivojlangan. Birinchi yo'nalishda davolash usullari sehrli tasavvurlar — totemizm, animistik qarashlar hamda turli tumor va marosimlar orqali izohlangan. Bu davrda tabiat hodisalari va kasalliklarning sabablari to'liq anglanmagan bo'lsa-da, chorvadorlar hayvonlarning tabiat ta'sirida o'z-o'zini davolash holatlarini kuzatish orqali ayrim amaliy tajribalarni shakllantirganlar.

Keyinchalik ijtimoiy hayotda dinlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan ayrim davolash usullari diniy tasavvurlar bilan ham bog'langan. Shu bilan birga, sehrli-marosimiy davolash usullari bilan bir qatorda xalq tabobatining amaliy, tajribaga asoslangan dunyoviy veterinariya usullari ham shakllana boshlagan.

O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlar va qabilalar hayotida chorvachilik asosiy tirikchilik manbalaridan biri bo'lgan. Shu faoliyat jarayonida tabiiy iste'dod va tajribaga ega tabiblar yetishib chiqqan. Ular nafaqat insonlarni, balki chorva mollarini ham turli kasalliklardan davolash bilan shug'ullangan va shu orqali chorvachilik rivojiga sezilarli hissa qo'shganlar. Shu jihatdan qadimgi Turon hududi veterinariya tabobati an'analari shakllangan muhim tarixiy makonlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdolnizozov B. Xorazm chorvachiligi – qadim zamonlardan hozirgacha. – Urganch, 1935–1936.
2. Avesto ("Videvdod" kitobi). – Toshkent: "Sharq", 2001.
3. Витт В. О. Лошади древнего Востока. – Москва, 1937.
4. Ибрагимов Б. Г. История ветеринарии Азербайджана. Народная и бытовая ветеринария в древний и феодальный период. – Баку: Изд-во «Элм», 1971. – С. 63.
5. Kabirov J. Sarmishsoyning qoya toshlaridagi rasmlar. – Toshkent: "Fan", 1976.
6. Кадыров А. Возникновение медицины в Средней Азии. – Ташкент: «Медицина», 1990. – С. 6–11.
7. Ravshanov R. Vodiy chorvadorlari tarixidan. – "Zarafshon" gazetasi, 1977-yil, 7-dekabr soni.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100